



ABDURAHMON JOMIY ASARLARI VA UNDA TARBIYAVIY AHAMIYATIGA OID MASALALAR

Baxor Muxammadiyeva Qudrat qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20438275>

Annotatsiya: Maqolada Abdurahmon Jomiyning asarlari va undagi tarbiyaviy ahamiyatga oid g'oyalarning adabiyot va pedagogika sohalarida tutgan o'rni tahlil qilingan.

Аннотация: В статье анализируются произведения Абдурахмона Джоми и роль его идей о педагогическом значении в области литературы и педагогики.

Annotation: The article analyzes the works of Abdurakhmon Jomi and the role of his ideas of educational significance in the fields of literature and pedagogy.

Kalit so'zlar: tarbiya, Jomiy, "Bahoriston", nasr, g'oya, pandnoma, nazm.

Ключевые слова: образование, Джами, "Бахористан", проза, идея, панднама, поэзия.

Keywords: education, Jami, "Bahoristan", prose, idea, pandnama, poetry.

Ma'lumki, Temuriylar davri madaniy muhitining yorqin adiblaridan biri bo'lgan Abdurahmon Jomiyning sharq adabiyotida o'z o'rni va ahamiyati bor.

U Sharqning XV asrda yetishgan eng yirik siymolaridandir. Mavlono Jomiy jahon bo'ylab zo'r shuhrat qozongan genial shoirlar sirasiga mansub bo'lish bilan birga, o'z zamonasidagi hamma va har turdagi ilmlarni qamrab olgan ulug' mutafakkir olim hamdir. U yaratgan turli mavzudagi asarlar sanog'ini to'qson to'qqizgacha yetkazadilar. Bu katta sanoqda falsafa, tarix, adabiyot, til, musiqa, muammo, aruz, she'riyat va boshqa xil ilm-fanga oid ijodiy mahsulot mavjuddirki, bunday g'oyat keng yaratuvchilik ishi mislsiz zo'r sabot, matonat va mehnatsevarlik samarasidir.¹

U nafaqat nazmda, balki nasrda ham samarali ijod etgan. "Bahoriston", "Silsilat uz-zahab", "Suhbat ul- abror", "Tuhfat ul-ahror" kabi asarlari sermazmun umrining go'zal mevalaridir. Ushbu asarlarda jamiyatning barcha sohaları qamrab olingan, shu bilan birga tarbiya, ta'lim. axloq kabi tushunchalar ham muhim o'rin egallagan.

Abdurahmon Jomiyning she'riy asarlari yuksak ahamiyatga molikdir. Avvalo, shoirning "Bahoriston" asariga to'xtalsak:

¹Shamsiyev. Ulug' do'stlik lavhalaridan. Jomiy va Navoiy (to'plam). – Toshkent: «Fan», 1966 – B. 5





Sayr ayla bu «Bahoriston» da,
Ko'rinar unda shan gulistonlar.
Latofatdan har gulistonda,
Gullar yashnab, anqir rayhonlar.²

Jomiy o'zining asarini ta'riflar ekan, uni bir gulistonga o'xshatadi. Ya'niki kitobxon ushbu kitobni o'qir ekan undagi ma'no gullaridan, axloq gullaridan iborat bahoristonda sayr etayotgangandek bo'ladi. O'sha bog'dan o'zi istagan gullarini hech bir mashaqqatsiz terib olaveradi. Jomiyning bu asarida axloqiy tushunchalar chuqur o'rin egallagan. Misol uchun:

Kibrsizlik lofin urma, uni ko'rmoqdan ko'ra,
Qorong'u tun chumolining izin ko'rmak osonroq.
Kibr gardin aritmoqdan oson erur shubhasiz,
Igna bilan tog'ni qazib, ostin-ustun qo'pormoq.³

Jomiy yuqoridagi keltirilgan misralar orqali insonlarni kamtarlikka chaqirib, kibrlanmaslikka undaydi. Kibr shunday bir illatki, odamlar qanday qilib uning domiga tushganini bilmay qolishadi. Uni tan olishdan ko'ra qorong'u tunda chumolini ko'rish osonroqdir. Kibrni yo'q qilish esa igna bilan quduq qazishdan ham qiyinroqdir.

O'tkinchi narsadan ko'ngil uza ol,
Abadlik tadbiri bilan birga qol.
Nimani bilolsang bilishga intil,
So'ngra bilganlaring bir-bir ishga sol.⁴

"Bahoriston" ning "Donolar hikmati" bobidan olingan ushbu she'r orqali adib kitobxonlarni ilm olishdan to'xtamaslikka, egallagan ilmiga umri davomida amal qilishga targ'ib qiladi. Jomiyning fikriga ko'ra, bilim eng avvalo, ratsional-mantiqiy bo'lishi kerak. Hech qanday bilim, odamga u yoki bu narsani to'liq tasvirlash, umuman, nima ekanligini tushuntirish imkoniyatini bermaydi. Mutafakkir mutlaq va metafizik dunyo haqidagi bilimlar to'g'risida o'z fikriga ega bo'lib, Aflotundan farqli o'laroq, mantiqsiz idrok shakli g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi.⁵

So'z aytib pushaymon yegandan ko'ra,
Unsiz o'ltirmoqlik yuz karra afzal.
Siringni aytmalik pushaymonlik yo'q,

² Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2007 – B. 3

³ Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2007 – B. 5

⁴ Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2007 – B. 10

⁵ O'qovsiddinob M. N // Abdurahmon Jomiy falsafiy qarashlari tahlili. 2025 – B. 4





Aytganlar pushaymon bo'lar ko'p mahal.⁶

Keraksiz so'zni so'zlab, pushaymon bo'lgandan ko'ra gapirmay o'tirganlik afzaldir. Sirini aytgan inson afsuslanishi mumkin, ammo sirini so'zlamagan inson aslo pushaymon bo'lmaydi.

Jomiyning "Nafahot ul-uns" asari ham bir qancha tarbiyaviy ahamiyatga ega masalalarni qamrab olgan:

"Qattig'likim, har kishi do'stining uyiga kirmakni odobini bilmas.

Bizlar birla ham suhbat bo'lsa bo'lmas"⁷

Agar kishi do'sti bilan suhbatlashish odobini bilmas ekan, u hech qachon donolar va aql egalari bilan suhbatdosh bo'la olmaydi. Demakki, hattoki do'st bilan suhbatda ham tarbiyani saqlagan holda so'zlashmoq kerak ekan.

Abdurahmon Jomiyning nasriy usulda yozilgan asarlari ham adabiyot durdonalarining tengsiz namunasi. "Nafahot ul-uns" asaridagi ma'rifatga oid ushbu fikrlarga e'tiborimizni qaratsak:

"Ma'rifatning ilmi ma'rifatning o'zi ermasdur. Balki ma'rifat degoni amri vijdonidurkim, tahrirg'a sig'mas. Ammo ma'rifatning ilmi ma'rifatga muqaddimadur. Bas, ma'rifat beilm mahol va ilm bema'rifat vabool bo'lur"⁸

Ma'rifat ilmsiz shakllanmaydi, insonlar ma'rifat, ya'ni tarbiyani egallashlari uchun, avvalo, ham diniy, ham dunyoviy ilmlarni egallamog'i darkor. Zero, inson qanchalik ilm olgani sari, shunchalik beilm ekanligini anglab boraveradi.

Ushbu asarda Ibrohim Adham haqidagi hikoyat ham keltiriladi:

"Ibrohim Adham rahimahulloh bir kishiga aydiki: "Valiy bo'lmoqni xohlarmusen?" Aydi: "Bale, xohlarmen. Nechun xohlamasman?" Ibrohim Adham aydi: "Dunyo oxiratdan hech nimarsaga rag'bat qilma. Nechunkim, bularg'a rag'bat yetmaylik xoh subnahu taolodin yuzini qaytarmoqdur. Va forig' qil o'zingni Xudoi taolog'a do'stlig' uchun tamomi ashyodin. Dunyo va uqboni ko'nglingg'a keltrumagil. Qalbingni Haq tarafig'a tutg'il. Va qate'iki bu sifatlar senda mavjud bo'lsa, valiy bo'lursen"⁹


Agar insonlar avliyo yoki donishmand bo'lishni istasa, dastlab, dunyo mulkidan qalblarini uzmoqliklari zarur. Birovdan nimadir ta'ma qilish insonni bu dunyoga bog'lab qo'yadi. Bu olamga bog'lanib qolish esa insonni ma'naviy

⁶ Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2007 – B. 15

⁷ Ravshanov. A // "Nafahot ul-uns" ning tasavvufdagi ahamiyati – B. 3

⁸ Ravshanov. A // "Nafahot ul-uns" ning tasavvufdagi ahamiyati – B. 4

⁹ Ravshanov. A // "Nafahot ul-uns" ning tasavvufdagi ahamiyati – B. 2





ochlikka duchor qilishi mumkin. Binobarin, tarbiyaning muhim shartlaridan biri ham mol-dunyoga ruju qo'ymaslikdir.

Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Jomiyning asarlari tafakkurning eng yuksak namunalari hisoblanib, hozirgi adabiy asarlarga ham o'z ta'sirni o'tkazmay qolmagan. Uning asarlarida diniy va tasavvufiy ma'nolardan tortib, tarbiyaviy-axloqiy tushunchalargacha bayon etilgan. Bu asarlar insonlar ruhiy olamini, ularning tarbiyalarini yana-da boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.Shamsiyev. Ulug' do'stlik lavhalaridan. Jomiy va Navoiy (to'plam). –Toshkent: «Fan», 1966 – B. 150
- 2.Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2007 – B. 105
- 3.G'ovsiddinob M. N // Abdurahmon Jomiy falsafiy qarashlari tahlili. 2025 – B. 5
- 4.Ravshanov. A // “Nafahot ul-uns” ning tasavvufdagi ahamiyati – B. 15

